



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA
VAZIRLIGI

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SOHASIDA 2025-YILDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR TO'G'RISIDA MA'LUMOT





XALQARO MOLIYAVIY TASHKILOTLAR BILAN HAMKORLIKDA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR

Jahon banki bilan hamkorlikda:

“Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo'llash” (iCRAFT) loyihasi doirasida 2023-yilda energetika tarif islohotlari natijasida respublikada jami **6,3 mln tonna CO2 ekv.** issiqxona gazlari qisqartirildi.

Natijada, ushbu qisqartirilgan emissiyaning ma'lum qismini (**500 ming tonna**) xalqaro uglerod birliklari savdosiga yo'naltirish orqali **7,5 mln AQSh dollari** miqdoridagi (*2-transh*) mablag'lar jalb etildi.

O'zbekistonning Iqlim investitsiya jamg'armasining (Climate Investment Fund – CIF) **Sanoatni dekarbonizatsiyalash dasturida** ishtirok etishi bo'yicha ariza topshirilib, Iqlim investitsiya jamg'armasi tomonidan eng yuqori **6 ta** davlatlar qatoridan joy oldi. Bunda, **250 mln AQSh dollari**gacha imtiyozli kredit jalb qilish imkoniyati yaratildi.

Iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij bitimiga muvofiq mamlakatning uzoq muddatli kam uglerodli rivojlantirish strategik maqsadlarini belgilash, yuqori qo'shilgan qiymatga ega kam uglerodli ishlab chiqarishni rag'batlantirish, iqtisodiy o'sish jarayonini uglerod emissiyalar bilan bog'liqligini keskin

kamaytirishga qaratilgan global va milliy strategik tashabbuslarni amalga oshirish bo'yicha tahlil va takliflarni qamrab olgan “**O'zbekistonning uzoq muddatli kam uglerodli rivojlanish imkoniyatlari va yo'llari**” (Uzbekistan. Long-term low-carbon development options and pathways - LTS) hisoboti ishlab chiqildi.

“**O'zbekistonda gaz sizib chiqishlarini bartaraf etish**” loyihasi doirasida O'zbekiston gaz sektorida “O'ztransgaz” AJ tasarrufidagi mavjud aktivlarda gaz sizib chiqishlarini bartaraf etish va shu orqali metan hamda texnik yo'qotishlarni sezilarli darajada qisqartirish, shuningdek qayta tiklangan gazdan olingan moliyaviy **tejab qolishlarni qayta investitsiya qilish** orqali qo'shimcha kapitalni safarbar etishni ta'minlash ko'zda tutilgan.

Loyihani amalga oshirish uchun kelishuv shartnomasini imzolash maqsadida loyiha oldi hujjatlari, jumladan Atrof-muhit va ijtimoiy majburiyatlar rejasi (**ESCP**), Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv doirasi (**ESMF**), Mehnat resurslarini boshqarish tartib-taomillari (**LMP**) hamda Manfaatdor tomonlarni jalb etish rejasi (**SEP**) ishlab chiqildi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Jahon banki o'rtasidagi loyiha kelishuvini imzolash 2026-yil fevral oyida bo'lib o'tishi rejalashtirilgan.



Fransiya agentligi (FTA) taraqqiyot bilan hamkorlikda:

Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Energetika vazirligi bilan Expertise France guruhi o'rtasida **"Energiya siyosati va iqlimni qo'llab-quvvatlash sohasida hamkorlik va almashuv to'g'risida"** Anglashuv Memorandumi imzolandi.

Ma'lumot uchun: Mazkur Memorandum, Fransiya Taraqqiyot Agentligi tomonidan moliyalashtirilayotgan **"Energiya siyosati va iqlimni qo'llab-quvvatlash kredit dasturi"** doirasida bo'lib, ajratilgan **1,5 mln yevro** texnik ko'mak mablag'lari yordamida O'zbekiston energetika siyosatini isloh qilish va barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi yangi hamkorlik yo'nalishlari rivojlantiriladi.

"Yashil iqtisodiyot siyosatini kreditlash dasturi" (Green Economy Policy Loan Program) doirasida 2025-2026-yillar uchun **200 mln yevro** miqdoridagi budjet ko'magi mablag'lari jalb qilinmoqda.

Shuningdek, Iqtisodiyot va moliya vazirligiga quyidagi yo'nalishlarda jami **4 ta ekspert** jalb etildi:

- qazilma-yoqilg'i subsidiyalarini baholash;

- davlat korxonalarini barqaror boshqarish;
- yashil binolar va master rejalar;
- yashil va uglerod solig'i.

Osiyo taraqqiyot banki (ADB) bilan hamkorlikda:

"Yashil, inklyuziv va barqaror iqtisodiy o'sish maqsadida iqlim o'zgarishiga moslashuvni jadallashtirish" dasturi (Green PBL) doirasida 2026-yil uchun dastlabki chora-tadbirlar rejasi (takliflar) shakllantirildi.

Ma'lumot uchun: Dastur doirasida 2024-yil **250 mln AQSh dollari** miqdoridagi mablag'lari budjetni qo'llab-quvvatlash uchun jalb qilindi hamda 2026-yil uchun **250 mln AQSh dollari** mablag'lar jalb qilish rejalashtirilgan.

Yevropa Ittifoqining Trans-chegaraviy uglerodni tartibga solish mexanizmiga (CBAM) tayyorgarlikni oshirish maqsadida **"O'zbekiston uchun eksportni diversifikatsiya qilish strategiyasi"** hisoboti tayyorlandi.

Respublikada Milliy emissiya savdosi tizimini (ETS) joriy etishga tayyorgarlikni oshirish, mamlakatning ushbu yo'nalishdagi joriy qonunchilik hujjatlari va holatini o'rganish maqsadida **"O'zbekiston Respublikasi: Emissiya savdosi tizimini (ETS) tashkil etishni qo'llab-quvvatlash"** hisoboti tayyorlandi.



O'zbekistonda iqlim xatarlarini baholash va ularga qarshi choralar ko'rish hamda habardorlikni oshirish bo'yicha Iqtisodiy boshqaruvni takomillashtirish dasturining 2-bosqichi doirasida **"Iqlim va tabiiy ofat xatarlarini skrining qilish"** hisoboti tayyorlandi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) bilan hamkorlikda:

"O'zbekiston Respublikasining dekarbonizatsiya strategiyasini ilgari surish va yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha hamkorlik" loyihasi doirasida jalb qilingan **200 mln AQSh dollari** miqdoridagi kredit mablag'lari **"Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmi"**ning (GEFF) III fazasi uchun mahalliy banklar orqali tadbirkorlik subyektlariga yashil kreditlarni ajratish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Global yashil o'sish instituti (GGGI) bilan hamkorlikda:

"O'zbekiston tomonidan Parij bitimini amalga oshirishga ko'maklashish va Parij bitimi 6-moddasiga muvofiq Koreya Respublikasi bilan birgalikdagi harakatlarni qo'llab-quvvatlash" loyihasini amalga oshirish uchun 2026-2030-yillarda **KOICA**dan **6,5 mln AQSh dollari** miqdoridagi grant mablag'lari moliyaviy ko'mak sifatida jalb

qilish rejalashtirilgan bo'lib, ushbu mablag'larning qiymati muhokamalar davomida qo'shimcha **2 mln AQSh dollariga** oshirildi.

Birlashgan Tashkiloti (UN) Millatlar bilan hamkorlikda:

BMTning Taraqqiyot Dasturi (BMTTD), BMTning Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (UNECE) va Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) bilan hamkorlikda **400 ming AQSh dollari** qiymatidagi **"O'zbekistonda adolatli energiya o'tishini qo'llab-quvvatlash"** dasturi amalga oshirilmoqda.

BMTTD bilan birgalikda quyidagi yo'nalishlarda iqtisodiy o'zgarishlarni barqaror moliyalashtirish sohasida **500 ming AQSh dollari** qiymatidagi **"Yashil iqtisodiyot bo'yicha hamkorlik"** (PAGE) dasturi ishlab chiqilmoqda:

- Milliy emissiya savdosi tizimi (ETS);
- Yashil iqlim moliyasining monitoringi va baholashi (M&E).

O'zbekiston 2025-yilda Parij bitimi doirasida issiqxona gazlarini qisqartirish bo'yicha milliy majburiyatlarini ambitsiyalarni oshirgan holda yangiladi. Xususan, joriy yilning noyabr oyida o'tkazilgan iqlim o'zgarishi bo'yicha xalqaro konferensiya



(COP-30)da O'zbekiston o'zining yangilangan **Milliy miqyosda belgilangan hissasi (NDC-3.0)**ni taqdim etdi. Bunda mamlakatda 2035-yilga borib 2010-yil darajasi bilan solishtirganda, yalpi ichki mahsulot (YaIM) birligiga to'g'ri keladigan issiqxona gazlari (GHG) emissiyalarini **50 foizga kamaytirish** belgilab olindi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) bilan hamkorlikda Yashil rivojlanishni moliyalashtirishni baholash bo'yicha hisobot (*Green Development Finance Assessment*) hamda O'zbekiston uchun **Yashil moliyalashtirish strategiyasi konsepsiyasi** ishlab chiqildi. Ushbu hisobot yashil rivojlanish ustuvor yo'nalishlariga qaratilgan mavjud moliyaviy oqimlarni kompleks tahlil qilishni, shuningdek qo'shimcha moliyalashtirishni samarali jalb etish uchun ehtiyojlar va imkoniyatlarni aniqlashni maqsad qiladi.

Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) bilan hamkorlikda:

“O'zbekistonda xususiy sektorga ko'maklashish va iqtisodiy siyosat bo'yicha maslahatlar” loyihasi doirasida:

“Mexmash” va “Navoiyazot” korxonalariga Yevropa xaridorlari uchun **Transchegaraviy uglerodni tartibga solish mexanizmi (CBAM)** talablariga muvofiq hisobotlarni tayyorlashda amaliy yordam ko'rsatilmoqda;

Yashil sanoatlashtirish bo'yicha **8 ta** viloyatda (*Toshkent, Farg'ona, Namangan, Andijon, Jizzax, Buxoro, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlari*) **89 ta** sanoat korxonalarida resurs samaradorligi va toza ishlab chiqarish bo'yicha baholash jarayonlari amalga oshirilmoqda.

Baholash natijalaridan kelib chiqib, resurs va energiyadan samarali foydalanish, chiqindi va oqava suvlarni tozalash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va buning asosida **47 ta korxonada** bir yil davomida issiqxona gazlari emissiyasini **10 foizga qisqartirishga** erishiladi.

Ma'lumot uchun: Taklif etilayotgan chora-tadbirlar bo'yicha jami resurs tejamligi:

- energiya tejash: **6,3 mln kVt/soat**
- suvni tejash: **82,4 m3**
- xomashyo tejash: **1054 tonna**
- issiqxona gazlarini qisqartirish: **17,3 tonna CO₂ ekv.**



Joriy yilning 26-sentabrida Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan “**O‘zbekistonda xususiy sektorga ko‘maklashish va iqtisodiy siyosat bo‘yicha maslahatlar**” loyihasi doirasida “**O‘zbekistonda past uglerodli hududlarni rivojlantirishda yashil sanoatni qo‘llab-quvvatlash**” mavzusida davra suhbatlari tashkil etildi.

Davlatlar bilan hamkorlik.

O‘zbekiston va Yaponiya Hukumati o‘rtasida tashkil etilgan **Qo‘shma moliyalash mexanizmi (JCM)** bo‘yicha Qo‘shma kengashning ilk rasmiy yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Bunda, Qo‘shma moliyalash mexanizmi doirasida loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha qoida va yo‘riqnomalar tasdiqlandi.

O‘zbekiston va Vengriya Hukumatlari o‘rtasida **iqlim o‘zgarishi sohasida hamkorlik** bo‘yicha hadli bitim imzolandi.

AMALIY CHORA-TADBIRLAR

Samarqand shahrida Iqlim forumida “**Yashil iqtisodiyot – barqaror rivojlanish sari**” mavzusida xalqaro yetakchi moliyaviy va rivojlanish tashkilotlari rahbarlarini jalb qilgan holda plenar yig‘ilishi tashkil etildi.

Mahsulotlar qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobidan ishlab chiqarilganligini tasdiqlovchi “**yashil energiya sertifikatlari**” tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, mazkur tizim doirasida 2025-yilda **446 mingdan ziyod** yashil energiya sertifikatlari chiqarilib, savdoga yo‘naltirildi.

Toshkent shahrida “**Eco Expo Central Asia 2025**” xalqaro ko‘rgazmasida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan “**Yashil iqtisodiyot**” va “**Yashil moliya**” pavilyoni tashkil etildi.

Ushbu pavilyonda Xalqaro moliyaviy tashkilotlar, xususan, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki va Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati vakillari hamda Energiya samaradorligi milliy agentligi, Ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi, tijorat banklari (SQB va Agrobank) vakillari ishtiroki ta‘minlandi.



Iqtisodiyot va moliya vazirligi ko'rgazmada ishtirok etgan vazirliklar orasida eng yaxshi pavilyon tashkil etgani uchun **faxrli birinchi o'rinni** qo'lga kiritdi.

Yaponiya Hukumati bilan hamkorlikda **150 dan ortiq** davlat va xususiy sektor vakillariga "**O'zbekistonda Qo'shma moliyalash mexanizmi (JCM) imkoniyatlari**" mavzusida seminar tashkil etildi.

Bunda, Yaponiyaning **15 dan ortiq** yashil energiya va sanoat sohasidagi yirik kompaniyalari ishtiroki ta'minlandi.

"**O'zbekistonning uzoq muddatli kam uglerodli rivojlanish strategiyasi va yashil energiya sertifikatlash tizimi**" mavzusida davra suhbatlari tashkil etildi. Tadbirda vazirlik va idoralar, xalqaro tashkilotlar, xususiy sektor va banklar vakillari ishtirok etib, uzoq muddatli "**uglerod neytralligi**"ga erishish strategiyasini ishlab chiqish hamda "**yashil sertifikat**" tizimini mukammallashtirish masalalari muhokama qilindi.

"Kambag'allikdan farovonlik sari" O'zbekiston kambag'allikni qisqartirish III Xalqaro forumi doirasida "Kambag'allikni qisqartirish uchun yashil o'sish: **Iqlimga mos yechimlar va yashil ish o'rinlari**" mavzusida panel sessiya tashkil etildi.

NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR BAZASINI TAKOMILLASHTIRISH

Joriy yilda yashil iqtisodiyot bo'yicha normativ-huquqiy bazani shakllantirish maqsadida quyidagi hujjat loyihalari ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Qonunlari:

O'zbekiston Respublikasining "**Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida**" gi Qonuni (O'RQ-1073) qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari:

"Energiya samaradorligini oshirish sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish va energiya servis kompaniyalari xizmatlari bozorini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi **PF-63-sonli Farmoni** qabul qilindi;

"O'zbekiston—2030" strategiyasini "**Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot**" yilida amalga oshirishga oid **davlat dasturi** to'g'risida" gi PF-16-sonli Farmoni qabul qilindi;



“Xalqaro uglerod birliklari bozorida ishtirok etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-110-sonli Farmoni qabul qilindi;

“O‘zbekiston Respublikasida “yashil moliyalashtirish” tizimini takomillashtirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmon loyihasi (ID-7191) ishlab chiqildi;

“O‘zbekiston Respublikasini 2055-yilgacha kam uglerodli rivojlantirish va uglerod neytralligiga erishish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qaror loyihasi (ID-7083) ishlab chiqildi.

“Xalqaro shartnomani tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qaror loyihasi (ID-6917) ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hujjatlari:

“Energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan loyihalarni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 300-sonli Qarori qabul qilindi;

“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Energiya samaradorligi milliy agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **292-sonli Qarori** qabul qilindi;

“Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish kengaytirilishi hamda “yashil moliyalashtirish” mexanizmlarining takomillashtirilishi munosabati bilan **“Yashil energiya” sertifikatlarini berish va muomalaga kiritish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida**”gi 292-sonli Qarori qabul qilindi.